

MUSIQA O‘QITISH METODLARI YORDAMIDA 5-7 SINF MUSIQA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sattorova Iroda Erkinovna

Termiz Davlat Pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA: O‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘quv vazifalarini hal etishga qaratilgan o‘zaro bog‘langan faoliyati yo‘llari va usullarini o‘qitish metodlari deb atash qabul qilingan. Metodlar pedagogning asboblari. U metodlardan foydalanib bilim beradi. O‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi hamda rivojlanishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli hamma o‘qitish metodlarini mukammal bilish va ulardan moxirona foydalanish pedagog uchun kasbiy zarurat va ayni vaqtda uning mahorat ko‘rsatkichi hisoblanadi.

KALIT SO‘ZLAR: abstrakt, sehrli san’at, og‘zaki mulohaza, individual, ko‘rgazmali, muvaffaqiyatli, o‘qitish metodi, intonasiya.

KIRISH

O‘quv materialining bitta mazmunining o‘zi ta’limning turli vositalari yordamida turli usullar bilan o‘zlashtirilishi mumkin. Shu sababli doimo o‘qituvchi oldida muvaffaqiyatliroq va samaraliroq o‘qitish hamda o‘qishga yordam beradigan yo‘llarni tanlash muammosi turadi. Musiqa faoliyati turlarini o‘zlashtirishning turli shakllarini qidirish musiqa darsining maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Masalan, qo‘shiq aytish qoidasini tushuntirishdan avval u nima maqsadda bolalarni ifodali kuylashga o‘rgatish uchunmi yoki ana shu qoida yordamida ularda badiiy didni shakllantirish uchunmi, yohud o‘quvchining umumiy nutq madaniyatini oshirish uchunmi, o‘rganilayotganini aniq bilishi kerak. Metod o‘z tuzilishi jihatidan murakkab bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining ko‘pgina jihatlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim metodlari ko‘p jihatdan o‘quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga bog‘liqdir. Masalan, 5-7 sinflarda o‘qitish metodlarini tanlash o‘quvchining hissiy tajribasi asosida tafakkurning abstrakt shakllarini rivojlantirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Metodlar o‘quvchilar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘lib, musiqa darslari davomida ularning ish qobiliyatini, charchashini, organizmining nerv, tomir, suyak- mushak, jinsiy tizimlari xususiyatlarini hisobga oladi. Musiqa o‘qitish metodlari pedagogikada, maktabda, o‘qituvchilar tajribasida tarkib topgan

an'analarga ham bog'liq. Masalan, musiqa o'qituvchisi o'z ishiga individual tus bag'ishlaydigan muayyan metodlardan foydalanishni afzal ko'radi. Unga ko'pincha boshqa mukammalroq ish shakllariga o'tish qiyin bo'ladi. Yoki, aksincha, ish uslubi ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirish uchun asos bo'lib qoladi. O'qitish metodlari nihoyatda xilma-xildir. Ularning ko'pchiligida o'xshash xususiyatlar bor, shu sababli guruhlarga birlashtiriladi. Metodlarning klassifikatsiyasi shu tarzda kelib chiqadiki, bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv metodlarini egallash shakllaridagi o'xshash va tafovut qiladigan jihatlarini chuqurroq anglab olishda hamda o'z o'qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi. Hozirgi vaqtda ta'lim nazariyasi va amaliyotida bilim olishning asosiy manbai bo'lgan o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlari keng tarqalgan.

Agar o'quvchilar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining og'zaki mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki qo'shik matnlari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki tushuntirish, hikoya, suhbat, izoh, sharx va hokazo metodlar jumlasiga kiradi. Bunda asosiy narsa fikr bayon qilishning to'g'ri tizimidir. Bu metodlar yoki tushunchalarni shakllantirish va o'zlashtirish jarayoniga, yoki hissiy obrazlarni shakllantirish va tasavvur qilishga qaratilgan bo'ladi. Musiqa darsida o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli san'at dunyosiga olib kiradi, qiziqarli hikoya va suhbat bilan o'quvchilar diqqatini musiqa obrazlariga yo'naltiradi. Musiqa o'qituvchisi so'zidan foydalanish sohasidagi shaxsiy pedagoglik texnikasini takomillashtirish ustida hamisha ishlashiga to'g'ri keladi. Quyidagilar uning asosiy mezonlari qatoriga kiradi:

- so'zlarni aniq talaffuz qilish, yaxshi diksiya;
- nutqning sur'atini va ohangini mohirona tartibga solish, intonasiyalarning rang-barangligi;
- pauzalarda mantiqiy urg'ulami o'z vaqtida qo'llash;
- bayon qilish uslubining emotsionalligi;
- imo-ishora va mimikaning egallaganligi, ulaming nutq mazmuniga o'z vaqtida, o'ylab va me'yori bilan kiritish;
- talabalar oldida o'zini qat'iy va ayni vaqtda erkin tutishi.

Hikoya tinglanadigan musiqa asari yoki o'rganiladigan qo'shiq mazmunini izchillik bilan obrazli qilib, chiroyli bayon qilishdir. Syujetning borligi va uning vaqt jihatidan rivojlanib borishi hikoya uchun xarakterlidir. Hikoya qilish jarayonida

tinglovchilarning tuygʻulari va kechinmalariga taʼsir etiladi va bu bilan ulaming oʻrganilayotgan asarga boʻlgan munosabati shakllanadi. Hikoya - bu oʻqituvchining musiqa asari haqidagi jonli, obrazli va yorqin hikoyaviy bayonidan iboratdir. Hikoya qisqa, obrazli va qiziqarli boʻlib, undagi bayon mazmuni asosiy maqsad - oʻquvchilarni asar obrazini badiiy tasavvur etishga va shu vosita bilan musiqa asarini badiiy idrok etishga erishishdan iboratdir. Hikoya metodi ogʻzaki bayon qilishda musiqa asarining mazmunini oʻquvchilarga savol berib uzmasdan bayon qilishni nazarda tutadi. Faqatgina qiziqarli va obrazli qisqa hikoya bolalar qalbida oʻrganiladigan asarga nisbatan qiziqish va muhabbat uygʻota oladi. Pedagogning yorqin, jonli hikoyasi, u keltirgan misollar va faktlar oʻquvchilarni oʻz-oʻzini tarbiyalashga undaydi. 5-7 sinf oʻquvchilariga tafakkurning obrazliligi xos boʻlganligi uchun ular bilan ishlashda hikoya metodini qoʻllash ayniqsa maqsadga muvofiqdir. Biz hozircha darsdagi oʻqitish metodi sifatida oʻqituvchining hikoyasi haqida gap yuritdik. Ammo hikoyadan oʻquvchilarning bilimlarini tekshirish vositasi sifatida ham foydalaniladi. U holda gap oʻquvchilardan yakka holda soʻrash vaqtidagi hikoyalari toʻgʻrisida boradi. Oʻqituvchi oʻquvchilardan hikoyachilarni, dokladchilarni oldindan tayyorlaganda, oʻquvchilarning hikoyalari dars davomida qoʻllaniladi. Oʻquvchilar bunda eng muhimi hikoya qilish vaqtida muayyan rejadan foydalansin, mazmun elementini mantiqan birma-bir ochib bersin; hikoyaning maʼlum bosqichini tugallar ekan, yakunlovchi jumlamani tushuntirishning yangi bosqichi bilan bogʻlay olsin. Tegishli nutq madaniyatini taʼminlash oʻquvchilarga ortiqcha soʻzlar, siyqasi chiqqan iboralardan qutulishda mohirona maslahatlar koʻmagida yordam berish, aytilgan har bir mustaqil fikr, mulohaza, soʻzlarning, oʻylab topilgan yangi fikrlarning originalligi uchun ragʻbatlantirishlar muhim ahamiyatga ega. Nutq oʻstirish oʻquvchilar shaxsini intellektual rivojlantirishda oʻta muhim ahamiyatga molik vazifa boʻlib, u faqat musiqa oʻqituvchilarini emas, balki barcha oʻquv fani oʻqituvchilarining ham vazifasi ekanligini unutmash kerak.

Suhbat oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi munosabatning jonli, faol savol javob shakli. Oʻqituvchi savol berishi bilan juda ham rang-barang oʻquv vazifalarini hal etish oʻquvchilar bilimini aniqlash, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish, yangi bilimlarni oʻzlashtirish vaqtida oʻquvchi tafakkurini boshqarish, oʻz tarbiyalanuvchilarining bilish kuchi va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega boʻladi. Bunda oʻquv material! bolalarning musiqa haqida bilim doirasi va amaliy tajribalari bilan bogʻlanib oʻzlashtiriladi. Suhbat jarayonida oʻqituvchi



o'quvchilarning fikriy faoliyatini kuchaytiradi, musiqa haqidagi bilim doirasini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Tushuntirish. Bu ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darslarida qo'llaniladi. U musiqa savodi, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi kabilarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish o'rganilayotgan qo'shiq, musiqa savodi va undagi qoidalar va musiqa bilan harakatning mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Musiqiy tarbiyada u doimo tushuntirilganlarni nima uchun aynan o'qituvchi talab qilgan usulda bajarish zarurligi sabablari va shartligini ochib berish bilan bog'langan. Masalan, o'qituvchi musiqa savodidan biror bir mavzuni yoritayotganda uning ham ilmiy asosda, ham hayotiy misollar orqali sodda yo'llar bilan o'quvchilarga tushuntirib berishi kerak. O'qituvchi tomonidan tushuncha berilayotgan vaqtda nutqqa «chunki» so'zini kiritish tushuntirish metodi uchun xarakterlidir.

Tavsif musiqa bilan bajariladigan harakatlarning belgisi, sifatlari yoki ularning izchilligi haqida qo'llanmani o'z ichiga oladi, lekin musiqiy harakatning aynan shunday xarakterini shart qilib qo'yuvchi asboblarni ko'rsatilmaydi. Tushuntirishga nisbatan tavsif go'yo uning soddalashgan shakli hisoblanadi. Musiqa tajribasida harakat amallari yoki ularning elementlari o'quvchilarga yetarligicha yaxshi ma'lum bo'lgan yoki yangi harakatlarni bajarish yo'llari juda soddaligi tufayli batafsil tahlil qilinmasa ham bo'ladigan hollarda tavsifdan foydalaniladi. Sharhlash (komentariya). Bu o'quvchilarning musiqa idrokini rivojlantirishda darsning musiqa tinglash qismida asosan musiqa o'qituvchisining badiiy nutqi orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi musiqa darsiga tayyorgarligi jarayonida tanlangan musiqa asariga va uning mazmuniga mos adabiy matn tayyorlaydi. Musiqa va ifodali o'qilgan matn bir vaqtning o'zida magnit lentasiga yoki diskka yozib olinadi. Bunda o'qituvchining vazifasi yangrayotgan musiqa asarini va uning mazmuni hamda xarakterini unda aks etayotgan voqelikni bevosita va bilvosita sharhlab boradi. Sharhlash musiqa o'qituvchisidan katta ko'tarinki ruhda tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Agar musiqa o'qituvchisida badiiy o'qish qobiyati bo'lmasa, unda u adabiyot o'qituvchisi yoki boshqa talantli o'qituvchi nutqidan foydalanishi mumkin. Musiqa asarini sharhlash orqali o'quvchilarga bunday taqdim etish ularda asarga nisbatan yaxshi taassurot qoldirishga yordam beradi. Darsda og'zaki metodlardan foydalanishga o'quvchilarning o'z fikrini erkin ayta olishlari, ashulalar, she'rlar, badiiy asarlardan parchalar ijro etish uchun keng imkoniyatlar ochib berish kerak.



XULOSA

Shunday qilib, maktablarda qo‘llanilayotgan ta‘lim metodlari og‘zaki uslubining asosiy turlarini ta‘riflab berdik. O‘qituvchining vazifasi bu to‘plangan metodlarni faqat egallabgina qolmasdan konkret vaziyatda ularning har biridan oqilona foydalanish, o‘sha vaziyat uchun aynan mos variantlarini o‘ylab topish, ularning boshqa metodlar bilan mohirona qo‘sha olishdan iboratdir. O‘qitishning og‘zaki metodlari tarbiyaviy ta‘sirini kuchaytirishiga alohida ahamiyat berish zarur. O‘quvchilarda musiqa faoliyatlari mazmunini asoslash, isbotlash, taqqoslash, bir-biriga qarama-qarshi qo‘ya olish mahoratini oshirish uchun og‘zaki metodlarning rolini ko‘tarish lozim. O‘qituvchining so‘zi faqat oddiy axborot berishdan iborat bo‘lmay, balki ishonitiruvchi, asoslovchi, isbotlovchi ta‘sirchan kuchga ega bo‘lishi kerak. O‘qituvchining so‘zi emotsiyalar, bayon qilinadigan mavzularga shaxsiy munosabat bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi lozim. Bularning hammasi o‘qitishdagi og‘zaki metodlarning tarbiyaviy ta‘sirini kuchaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Йулдошева С.Х. Ўзбекистонда музика тарбияси ва таълимнинг ривожланиши. Тошкент, “Укитувчи” нашриёти
2. Таълим тараккиёти. 6 — махсус сон. Тошкент, “Укитувчи” -нашриёти
3. Дмитриева Л.Г., Черноиваненко Н.М. Методика музыкального воспитания в школе. Москва, “Просвещение”
4. Эстетик тарбия асослари. Кушаев Н.А. тахрири остида. — Тошкент, “Укитувчи” нашриёти
5. Акбаров И.А. Музика лугати. Тошкент, Гафур Гулом номи “Адабиёт ва санъат” нашриёти.

Research Science and
Innovation House

